

SAVDO VA PULLIK XIZMAT KO'RSATUVCHI YURIDIK SHAXSLAR VA TADBIRKORLIK SUB'EKTALARINING TO'LOV TERMINALLARIGA XIZMAT KO'RSATISH BO'YICHA OMMAVIY OFERTA

ATB “Biznesni rivojlantirish banki” (keyingi o‘rinlarda – Bank) savdo va pullik xizmat ko‘rsatuvchi Yuridik shaxslar va tadbirkorlik sub’ektlar (keyingi o‘rinlarda – xo‘jalik yurituvchi sub’ekt) to‘lov terminallari uchun xizmat ko‘rsatish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 367-369-moddasiga muvofiq ommaviy oferta (keyingi o‘rinlarda – oferta) tuzishni taklif qiladi.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt Bankning taklif etgan Ofertasini harakatlari orqali akseptlashi, u tomonidan oferta tuzishga rozi bo‘lganligini hamda uni talablarini e’tirozsiz to‘liq qabul qilganligini bildiradi.

Ofertani mobil aloqasi va boshqa aloqa vositalari orqali bankning www.brbb.uz veb-saytidan PDF shaklida yuklab olishi mumkin.

1. ASOSIY TUSHUNCHALAR

1.1. **To‘lov terminali** – bank karta egasiga to‘lov operatsiyalarini amalga oshirish imkoniyatini beruvchi va bajarilgan operatsiyalar bo‘yicha “slip”larni shakllantiruvchi qurilma;

1.2. **Slip** – bank kartasi orqali amalga oshirilgan operatsiyalarini tasdiqlovchi, operatsiyaning miqdori, turi, amalga oshirilgan sanasi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni va ushbu “slip”ni shakllantirgan bank kartasi hamda terminal to‘g‘ri aniqlay bilish imkoniyatini beruvchi axborotni o‘zida mujassamlashtirgan terminal kvitansiyasi;

1.3. **Bank kartasi** – plastik karta egasiga karta hisobvarag‘i bo‘yicha amaliyotlar o‘tkazish imkoniyatni, jumladan, naqd va naqd pulsiz hisob-kitoblarni o‘tkazishni ta’minlovchi to‘lov kartasidir;

1.4. **Ekvayring** – bank kartalari orqali tovar (ish, xizmat) sotuvchilari bilan operatsiyalar bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish hamda bank karta egasiga bevosita kassa yoki bankomat orqali naqd pul berish;

1.5. **Bank-ekvaer** – ekvayringni amalga oshiruvchi bank;

1.6. **Tovarlar (ish, xizmat) sotuvchisi** (bundan keyin – Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt) – bu ekvaer bilan tuzilgan shartnomaga asosan bank to‘lov plastik kartochkalari orqali tovarlar (ish, xizmat) sotuvini amalga oshiruvchi xo‘jalik (yuridik va/yoki yuridik maqomga ega bo‘lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi jismoniy shaxs) sub’ekti;

1.7. **UZCARD** – “Yagona Umumrespublika Protsessing Markazi” MChJ;

1.8. **HUMO** – “Milliy Banklararo Protsessing Markazi” MChJ;


1.9. **Tranzaksiya** – plastik karta egasi karta hisobvarag‘ini debet qilishga olib keluvchi plastik karta egasi tomonidan naqd yoki naqdsiz amalga oshiriladigan amaliyotlar;

1.10. **To‘lovni kommunikatsion bekor qilish** – savdo va xizmat ko‘rsatish ob’ektlarida Bank kartalardan foydalanib amalga oshirilgan lekin o‘tmagan to‘lovlarini kommunikatsion avtomatik bekor qilish;

1.11. **Stop-list** – protsessing markazi tomonidan shakllantiriladigan va doimiy yangilanib turadigan yo‘qolgan yoki bank tomonidan hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish vaqtincha to‘xtatib turilgan yoki butunlay to‘xtatilgan Bank kartalari ro‘yxati.

2. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Ushbu Shartnoma Bank tomonidan Xo‘jalik yurituvchi sub’ektga to‘lov terminalini foydalanish uchun berishni yoki Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt tomonidan taqdim etilgan to‘lov terminalini Bank to‘lov tizimiga biriktirishni va unga xizmat ko‘rsatishni hamda Bank va Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tartibga soladi.



3. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Bank quyidagi majburiyatlarni oladi:

3.1.1. Xo‘jalik yurituvchi sub’ekti arizasini qabul qilgandan keyin 10 bank ish kunidan kechiktirmasdan to‘lov terminalni Xo‘jalik yurituvchi sub’ektiga vaqtincha foydalanish uchun berish;

3.1.2. Xo‘jalik yurituvchi sub’ekti to‘lov terminalini inkassatsiya qilish orqali tushgan pul mablag‘larini, bankka tushgan kundan 1 kundan kechiktirmasdan Xo‘jalik yurituvchi sub’ekti depozit hisobvarag‘iga kiritib qo‘yish. Agar pul mablag‘larini Xo‘jalik yurituvchi sub’ekti depozit hisobvarag‘iga o‘tkazish dam olish yoki bayram kunlariga to‘g‘ri kelsa, pul mablag‘larini o‘tkazish dam olish yoki bayram kunlaridan keyingi ish kunida amalga oshiriladi;

3.1.3. Ushbu shartnomaning 1-ilovasidagi **“TOPSHIRISH-QABUL QILISH DALOLATNOMASI”**ga asosan Xo‘jalik yurituvchi sub’ektga to‘lov terminalini o‘rnatadi;

3.1.4. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektiga to‘lov terminalidan foydalanish bo‘yicha tushuntirish berish;

3.1.5. Bank UZCARD va HUMO tizimidagi bank kartalariga xizmat ko‘rsatishni ta’minalash;

3.1.6. Amaldagi qonunchilikka muvofiq Xo‘jalik yurituvchi sub’ekti to‘g‘risidagi ma’lumotlar va ularning depozit hisobvarag‘idagi mablag‘lari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni sir saqlash.

3.1.7. Mijoz yoki mijoz tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiya 2886-ga asosan yuqori darajadagi tavakkalchilik toifasiga kiritilgan taqdirda bank ushbu mijozni tekshirishning kuchaytirilgan chora-tadbirlarini – operatsiya bo‘yicha pul mablag‘lari yoki boshqa mol-mulkning manbalari haqidagi qo‘srimcha ma’lumotlarni olish, maqsadlarini o‘rganish, ushbu mijoz tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalar ustidan doimiy monitoring yuritish va bu haqda komplaens nazorat xizmati mas’ul xodimiga xabar berishlari shart.

3.2. Bankning huquqlari:

3.2.1. Xo‘jalik yurituvchi sub’ekti ushbu shartnomaning 4.1-bandlarga amal qilmasdan yoki bir oy davomida Bank kartalari orqali aylanmalarni amalga oshirmsa hamda mahsulotlar (xizmatlar) taqdim etuvchi tomonidan Bank kartasidan shubhali amaliyotlarni amalga oshirish va terminalni noqonuniy ishlash holatlari kuzatilsa, bank ushbu shartnomani bir tomonlama bekor qiladi va terminalni qaytarib oladi;

3.2.2. Xo‘jalik yurituvchi sub’ekti shartnomaning 4.1.3-bandida ko‘rsatilgan shartlarni bajarmasdan STOP-LIST ro‘yxatidagi kartalardan mablag‘lar yechilishiga olib kelgan bo‘lsa, o‘tkazilgan tranzaksiyalardagi mablag‘larni bank Xo‘jalik yurituvchi sub’ektining hisobvarag‘idan akseptsiz yechish yoki Xo‘jalik yurituvchi sub’ekti asosiy hisobvarag‘i boshqa bankda ochilgan bo‘lsa, boshqa bankka to‘lov talabnomasi qo‘yish orqali undirish;

3.2.3. Amaldagi bank tarifiga bir tomonlama o‘zgartirish kiritish hamda Bank tarifi o‘zgargani to‘g‘risida tarif kuchga kirishidan 30 kalendar kun ichida Bank rasmiy saytida joylashtirish va Xo‘jalik yurituvchi sub’ektiga ma’lum qilish.

3.2.4. Bankning amaldagi tarifiga asosan bank xizmatlari uchun vositachilik to‘lovlarni undirish;

3.2.5. Bank quyida ko‘rsatilgan hollarda Xo‘jalik yurituvchi sub’ektidan yetkazilgan zararni bankning amaldagi tarifiga muvofiq undirishga haqli:

to‘lov terminali yo‘qotilsa;

terminalga mexanik ta’sir natijasida zarar yetkazilsa (sindirilsa);

terminal yaroqsiz holatga keltirilsa.

3.2.6. Xo‘jalik yurituvchi sub’ekti tomonidan ushbu shartnomaning 4.1.11, 4.1.12-bandlari talablari bajarilmaganda yetkazilgan zararni bankning amaldagi tarifiga muvofiq Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning depozit hisobraqamidan akseptsiz yechish. Agar Xo‘jalik yurituvchi



sub'ektning asosiy hisobvarag'i boshqa bankda bo'lsa, boshqa bankka to'lov talabnomalar qo'yish orqali undirish.

3.2.7. Bank Xo'jalik yurituvchi sub'ektdan olingan axborotlar (hujjatlar) ishonchligiga shubhalar mavjud bo'lganda, ushbu axborotlarni (hujjatlarni) tekshirish (verifikatsiyalash) bo'yicha choralarini ko'rishlari lozim. Bunday holatlarda, Bank Xo'jalik yurituvchi sub'ekt taqdim etgan axborotlarning (hujjatlarning) ishonchligini (haqiqiyligini) aniqlashtirish uchun tegishli tashkilotlarga murojaat qilishi mumkin.

3.2.8. Bank quyidagi hollarda Xo'jalik yurituvchi sub'ektga operatsiyalarni amalga oshirishni rad etishga haqlidir:

yuridik shaxsning boshqaruv organi yoki yuridik shaxs nomidan ishonchnomasiz faoliyat ko'rsatish huquqiga ega bo'lgan shaxs o'zining joylashgan yeri (pochta manzili) bo'yicha mavjud bo'limganida;

atayin noto'g'ri bo'lgan hujjatlar taqdim etilganda yoki qonun hujjatlariga muvofiq so'raladigan hujjatlar taqdim etilmaganda;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

3.2.9. Taqdim qilingan hujjatlar nusxalarining to'g'rilinga guman yoki boshqa zarurat paydo bo'lgan taqdirda, Bank tanishish uchun hujjatlarning asl nusxalarini Xo'jalik yurituvchi sub'ektdan taqdim qilinishini talab qilish huquqiga ega.

3.2.10. Bank "Jinoi faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qarshisini moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat Qoidalari"ga (ro'yxat raqami 2886, 23.05.2017y.) muvofiq pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulk bilan bog'liq operatsiyalar haqidagi ma'lumotlarni maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etishga, mijoz hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turishga yoki ularning bajarilishini rad etishga haqlidir.

3.2.11. Bank mijoz tomonidan gumanli operatsiyalar amalga oshirilishi holatlari aniqlanganda ushbu shartnomani bir tomonlama o'z tashabbusi bilan bekor qilishga haqli.

3.2.12. Tijorat banklarida jinoi faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qarshisini moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalariga" (ro'yxat raqami 2886, 2017-yil 23-may) muvofiq mijoz hisobvarag'i bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turishga yoki ularni amalga oshirishni rad etishga haqli) qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

4. XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt majburiyatları:

4.1.1. Hisob-kitob qilish xizmati uchun naqd pulda o'rnatilgan narxdan oshmaydigan narx bo'yicha bank kartalariga xizmat ko'rsatish.

4.1.2. To'lov terminalining tegishliligiga qarab UZCARD yoki HUMO to'lov tizimining reklama belgilari, logotiplari va boshqa ma'lumotlarni savdo do'konlarining bank karta egalariga ko'rindigan va bevosita to'lov terminali o'rnatilgan nuqtalarda joylashtirish.

4.1.3. Moliyaviy to'lovlar amalga oshirilmaganda ham terminalini har kuni inkassatsiya qilish va inkassatsiya qilish orqali STOP-LIST lar ro'yxatini yangilab borish.

4.1.4. Xo'jalik yurituvchi sub'ektiga bank tomonidan berilgan to'lov terminalidan belgilangan tartibda foydalanish hamda soz holatda ishslashini ta'minlash.

4.1.5. Berilgan terminal uskunasi nosoz holga kelganda, shu kundan boshlab, 1 (bir) ish kunidan kechiktirmasdan Bankka yozma murojaat qilish, terminal uskunasini bankning yozma roziligidiz mustaqil yoki uchinchi shaxslarni jalb qilgan holda sozlamaslik. Agar terminal uskunasi Xo'jalik yurituvchi sub'ekt aybi bilan nosoz holga kelgan bo'lsa ta'mir xarajatlari Xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan to'liq to'lanadi.

4.1.6. Xo'jalik yurituvchi sub'ekt manzili va ma'lumotlari hamda bank to'lov terminali



joylashgan savdo shoxobchalarining joyi o‘zgarganligi haqida bankka 1 (bir) ish kunidan kechiktirmasdan yozma ravishda xabar berish.

4.1.7. Bank tomonidan berilgan to‘lov terminalini uchinchi shaxslarga bermaslik.

4.1.8. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektining savdo shoxobchasida rejalahshtirayotgan va bir oydan uzoq davr mobaynida bank kartalari orqali tranzaksiyalar amalga oshirilishiga imkon bermaydigan tadbirlar (binoni ta’mirlash, inventarizatsiya, qayta hisoblash, davlatning vakolatga ega muassasalari tomonidan tekshiruv o‘tkazilishi va boshqalar) haqida bankni oldindan xabardor qilish.

4.1.9. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektga berilgan terminal uskunasini tegishliligiga ko‘ra UZCARD yoki HUMO to‘lov tizimi serveriga ulanishi uchun aloqa kanallari hamda sarflash materiallari (termoqog‘oz) bilan ta’minalash.

4.1.10. To‘lovni kommunikatsion bekor qilish holatida ushbu masalani to‘g‘ri hal etish yuzasidan xizmat ko‘rsatuvchi Bankka zudlik bilan murojaat qilish.

4.1.11. Shartnoma bekor qilinganda “TOPSHIRISH-QABUL QILISH DALOLATNOMA”ga asosan terminal uskunasi soz holatda qaytariladi. Agar terminal uskunasi Bankka qaytarish vaqtida mexanik, texnik nosozligi yoki yo‘qolganligi aniqlansa, Xo‘jalik yurituvchi sub’ekti Bank bilan dalolatnoma rasmiylashtirilgan vaqtadan boshlab, 3 bank ish kuni ichida Bank tarifida belgilangan jarimani to‘laydi.

4.1.12. Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt o‘ziga berilgan terminal uskunasi bo‘yicha bankning vositachilik haqini bankning amaldagi tarifiga asosan tranzaksiya aylanmasidan amalga oshirish.

4.1.13. To‘lov plastik kartochkalari orqali tovarlar (ish, xizmat) sotuvini amalga oshirishda Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt Bank karta egalari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni uchinchi shaxsdan sir saqlash.

4.1.14. Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt o‘ziga berilgan terminal uskunasi orqali mijozning bank kartasidan mablag‘larni naqdlashtirib berishga yo‘l qo‘ymaslik.

4.1.15. Nizoli (bahsli) tranzaksiyalar bo‘yicha yuzaga kelgan “chargeback” amaliyotlari natijasida qaytarilgan mablag‘larni “BRB” ATBga qaytarib berish.

4.2. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning huquqlari:

4.2.1. Terminal orqali amalga oshirilgan molivaviy amaliyotlari bo‘yicha noaniqliklar yuzaga kelganda Bankdan ma’lumotlar olish.

4.2.2. Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt to‘lov terminalidan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha ishchi-xodimlarini o‘qitishni Bankdan talab qilish.

4.2.3. To‘lov terminali orqali tushgan tushumlarni 3.1.2-bandga asosan Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning depozit hisobraqamlariga o‘z vaqtida kirish qilishni talab qilish.


4.2.4. Bank bilan shartnoma tuzilganidan keyin 10 bank ish kunidan, mijozning o‘zi tomonidan taqdim etilgan to‘lov terminali bo‘yicha 3 bank ish kuni kechiktirmasdan “TOPSHIRISH-QABUL QILISH DALOLATNOMA”ga asosan to‘lov terminalni o‘rnatishni talab qilish.

5. HISOB-KITOBLAR TARTIBI VA SHARTLARI

5.1. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektga bank tomonidan berilgan yoki mijozning o‘zidagi mavjud to‘lov terminali bo‘yicha bank xizmat haqi bankning amaldagi tarifiga asosan undirib boriladi.

5.2. To‘lov terminali ta’mir talab holatga keltirilganda, dalolatnomaga asosan ta’mir xarajatlari Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt tomonidan qoplanadi. Bunda, terminalni ta’mirlash xarajatlari va bank tomonidan undirilish lozim bo‘lgan boshqa mablag‘lar bilan bog‘liq hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab, Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt tomonidan 3 bank ish kunida to‘lanishi shart.

5.3. Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt tomonidan ta’mir xarajatlari va bank tomonidan undirilishi lozim bo‘lgan boshqa mablag‘lar o‘z vaqtida to‘lanmagan holatda, bank Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning inkassatsiya qilinayotgan tranzaksiya mablag‘lari hisobidan qoplanishi mumkin.



6. TOMONLAR JAVOBGARLIGI

6.1. Bank Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt oldida bank kartasi orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish bo‘yicha quyidagi hollarda javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi:

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt, bank kartalari orqali amaliyotlarni amalga oshirishda ushbu shartnomada o‘rnatilgan qoida va tartibni buzganda;

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt tomonidan o‘tkazilgan to‘lov amaliyoti to‘g‘risida hujjat yoki axborotlar yo‘qligida;

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt tomonidan noqonuniy harakatlar amalga oshirilganda; Bankning naqd-pulsiz hisob-kitoblar tizimi yoki uning avtomatlashtirilgan bank tizimida bankka aloqador bo‘lmagan texnik nosozlik vujudga kelgan hollarda Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt terminalidan amalga oshirilgan tranzaksiya mablag‘larini Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt hisobraqamiga o‘z vaqtida o‘tkazmaganligi uchun.

6.2. O‘zbekiston Respublikasi hududida bank kartalari emissiyasining o‘rnatilgan tartibini, bank kartalari orqali xizmat ko‘rsatish va amaliyotlar bo‘yicha hisob-kitoblarni o‘tkazish qoidalarini buzganliklari uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida o‘rnatilgan tartibda javobgarlik to‘lov tizimi ishtirokchilari zimmasida bo‘ladi.

7. MA’LUMOTLAR MUHOFAZASI

7.1. Tomonlar shartnomadagi ma’lumotlar muhofazasini ta‘minlashga mas’uldir.

7.2. Tomonlar bir-biriga shartnoma doirasida yuboriladigan har bir ma’lumot maxfiy hisoblanadi va ushbu maxfiy ma’lumotlarni oshkor qilgan tomon O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

8. SHARTNOMANI BEKOR QILISH

8.1. Mazkur shartnoma quyidagi hollarda bekor qilinadi:

tomonlarning biri shartnoma bekor bo‘lishidan 1 oy oldin xabarnoma yuborgan holda;
tomonlar ushbu shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarni bajarmagan hollarda.

8.2. Shartnomani bekor qilish tomonlarning avval qabul qilgan majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

9. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

9.1. Mazkur shartnoma nomuayyan muddatga tuziladi

9.2. Shartnoma bekor bo‘lganda tomonlar 1 oylik muddatda o‘zaro hisob-kitoblarni to‘liq amalga oshirishi shart.

9.3. Mazkur shartnoma bankka ushbu xizmat turini yoqish bo‘yicha ariza taqdim qilgan kundan boshlab kuchga kiradi.

10. FORS-MAJOR

10.1. Shartnoma kuchga kirgandan keyin sodir bo‘lgan yengib bo‘lmas kuch (Fors-major) sababli tomonlar Shartnoma majburiyatlarini qisman yoki to‘liq bajarmagan bo‘lsa va bu kuchni tomonlar mumkin bo‘lgan usullar yordamida oldini ololmasa, tomonlar ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni qisman yoki to‘liq bajarmaganlik uchun javobgarlikdan ozod qilinadilar.

11. NIZOLARNI HAL ETISH


11.1. Tomonlar o‘rtasidagi barcha kelishmovchiliklar muzokara yo‘li bilan hal qilinadi.

11.2. Vujudga kelgan kelishmovchiliklar muzokara yo‘li bilan hal etilishi mumkin bo‘lmagan taqdirda tomonlar o‘rtasidagi nizolar sud tartibida hal etiladi.

12. BOSHQA SHARTLAR

12.1. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarga to‘lov terminallarini o‘rnatishda ushbu shartnomaning 1-ilova, 2-ilova va 3-ilovasiga muvofiq hujjatlar rasmiylashtiriladi. To‘lov terminallari nosoz holga kelganda 4-ilova va yo‘qotilganda 5-ilovaga muvofiq hujjatlar rasmiylashtirilib, ushbu shartnoma talablariga muvofiq choralar ko‘riladi.


12.2. Ilova №1 “Topshirish-Qabul Qilish Dalolatnomasi”.



- 12.3. Ilova №2 “So‘rovnoma”.
- 12.4. Ilova №3 “Tashkilot xodimlari bilan o‘quv o‘tkazilganligi to‘g‘risidagi dalolatnoma”
- 12.5. Ilova №4 “Nosoz holga kelgan to‘lov terminali to‘g‘risida dalolatnomasi”
- 12.6. Ilova №5 “To‘lov terminali yo‘qotilganligi to‘g‘risidagi dalolatnoma”.

ATB “Biznesni rivojlanish banki”

YURIDIK DEPARTAMENTI



2024-yil “
dagi

 -sonli shartnomaning
1-ilovasi

sh.

202 -yil “ ”

TO'LOV TERMINALINI TOPSHIRISH - QABUL QILISH DALOLATNOMASI

Biz quyida imzo chekuvchilar “Biznesni rivojlantirish banki” ATB _____ BXO hamda _____ ushbu dalolatnomani shu haqda tuzdik, ya'ni Bank foydalanish uchun yaroqli terminal uskunasini soz holatda foydalanishga beradi, terminal uskunasini quyidagi ro'yxatga asosan soz holatda qabul qildim:

TOPSHIRILAYOTGAN USKUNALAR RO'YXATI

Nº	Uskuna nomi va rusumi	Seriya va Inventar raqami	soni, dona

Topshirilayotgan to'lov terminalining balans qiymati _____ so'mni tashkil qiladi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan uskunaning butligini ta'minlash va ushbu uskunaga mas'ul etib

tayinlandi.

(bankning mas'ul vakili)

(imzo)

(bank boshqaruvchisi)


(imzo)

(xo'jalik yurituvchi sub'ekt)

(imzo)

M. O'.

M. O'.



_____ sh.

202__-yil “___”
2- ilovasi

SO'ROVNOMA

(tashkilot nomi, davlat ro'yxatidan o'tgan raqami)

**Tashkilotning yuridik
manzili** _____

(pochta indeksi, viloyat, shahar, tuman/kvartal, ko'cha, uy, xonodon)

Tashkilotning dislokatsiya manzili _____

(pochta indeksi, viloyat, shahar, tuman/kvartal, ko'cha, uy, xonodon)

Rahbar _____

(F.I.O., pasport ma'lumotlari)

Telefon: _____


**Bosh
buxgalter:** _____

(F.I.O., pasport ma'lumotlari)

Telefon: _____

Tashkilot savdo shoxobchasi _____

(savdo shoxobcha nomi, davlat ro'yxatidan o'tgan raqami)



Manzili: _____

_____ (pochta indeksi, viloyat, shahar, tuman/kvartal, ko‘cha, uy, xonodon)

Rahbar: _____

(F.I.O., pasport ma'lumotlari)

Telefon: _____

Mas'ul: _____

(F.I.O., pasport ma'lumotlari)



202__ -yil _____ dagi
_____-sonli shartnomaning
3-ilovasi

TASHKILOT XODIMLARI BILAN O'QUV O'TKAZILGANLIGI TO'G'RISIDAGI DALOLATNOMA

Plastik karta egalariga terminal orqali xizmat ko'rsatish va terminal uskunasidan to'g'ri foydalanish bo'yicha tashkilot mas'ul xodimi bilan o'quv o'tkazildi.

Plastik karta egalariga terminal orqali xizmat ko'rsatish va terminal uskunasidan to'g'ri foydalanishni o'rgandim.

1. _____

(F.I.O., lavozimi)

(imzo, o'quv o'tkazilgan sana)

2. _____

(F.I.O., lavozimi)

(imzo, o'quv o'tkazilgan sana)

3. _____

(F.I.O., lavozimi)

(imzo, o'quv o'tkazilgan sana)

Tashkilot rahbari

(F.I.O., imzo)


M.O'.

Plastik karta egalariga terminal orqali xizmat ko'rsatish va terminal uskunasi ish holatida bo'lishiga yuqorida qayd etilgan xodimlar mas'ul etib tayinlandi.

Bank vakili

(F.I.O., imzo)

Plastik karta egalariga terminal orqali xizmat ko'rsatish va terminal uskunasidan to'g'ri foydalanish bo'yicha tashkilot mas'ul xodimi bilan o'quv o'tkazildi.



202_-yil _____ dagi
_____-sonli shartnomaning
4-ilovasi

**NOSOZ HOLGA KELGAN TO'LOV TERMINALI TO'G'RISIDA
DALOLATNOMA**

_____ sh.

202_yil “__” _____

Biz quyida imzo chekuvchilar “Biznesni rivojlantirish banki” ATB _____
BXO hamda _____ ushbu dalolatnomani
shu haqda tuzdik, ya’ni Xo‘jalik yurituvchi sub’ektga vaqtincha foydalanish uchun berilgan
terminal uskunasini nosoz holga kelish sababini aniqlash bo‘yicha:

Modeli: _____

Seriya raqami: _____

Terminalni holati: _____

(mexanik va texnik nosozliklar qayd etilsin)

Terminal uskunasini ishlamaslik sababi: _____

(ishlomaslik sababi va shartnomaning buzilgan bandlari qayd etiladi)

Dalolatnomma 2 nusxada tuzildi.


TOMONLAR:

Bank:

(F.I.O., lavozimi)

(imzo,sana)

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt:



(F.I.O., lavozimi)

(imzo,sana) M.O‘.

202 ____ -yil _____ dagi

____ -sonli shartnomaning

5-ilovasi

TO‘LOV TERMINALI YO‘QOTILGANLIGI TO‘G‘RISIDAGI DALOLATNOMA

_____ sh.

202 ____ -yil “ ____ ” _____

Biz quyida imzo chekuvchilar “Biznesni rivojlantirish banki” ATB _____ BXO hamda _____ ushbu dalolatnomani shu haqda tuzdik, ya’ni Xo‘jalik yurituvchi sub’ektga vaqtincha foydalanish uchun berilgan terminal uskunasini yo‘qotib qo‘yilganligini aniqlash bo‘yicha:

Modeli:

Seriya _____ raqam/inventar _____ raqam: _____

Yo‘qotish sababi: _____

(yo‘qotish sababi va shartnomaning qaysi bandlari buzilgan.)

Mazkur dalolatnoma 2 nusxada tuzildi.

TOMONLAR:

Bank:

(F.I.O. lavozimi)

(imzo,sana)

Xo‘jalik yurituvchi sub’ekt:

(F.I.O. lavozimi)

(imzo,sana)

M.O‘.

